
Xiva xonligi tarixiga oid yangi monografiya

Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Umid Bekmuhammad va tarix fanlari doktori, dosent Sadoqat Matkarimovalar hammuallifligidagi yangi kitob Buxorodagi “Durdona” nashriyotida chop qilindi. “Xiva xonligi Rossiya mustamlakachiligi davrida. 1873-1917-yillar” nomli monografiyada Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlaka davrida xonlik davridagi ijtimoiy-ma’rifiy, iqtisodiy jarayonlar tadqiq etiladi.



1873-yildagi istilodan to 1917-yilda kechgan voqeliklar, mustamlaka holatda ham jamiyatda islohotlar olib borgan taraqqiyparvarlarning sa’yi-harakati, bu davrdagi agrar soha, sanoat, savdo, nemis mennonitlarining vohadagi faoliyati, jadidchilik harakati, shuningdek mustamlakachilikka qarshi xalq qo‘zg‘oloni, 1917-yildagi “Yosh xivaliklar”ning istiqlol sari intilishlari o‘sha davrga oid arxiv hujjatlari, vaqtli matbuot nashrlaridagi ma’lumotlar, memuarlar, ilmiy adabiyotlar orqali tadqiq qilinadi.